

**DUNYO AMALIYOTI VA O'ZBEKISTON BARQAROR RIVOJLANISHDA
KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH: TAHLIL VA ISTIQBOLLAR**

O'zbekiston Respublikasi Bank-Moliya

Akademiyasi magistranti

Namozov Sadulla Namozovich

Email-namozov0708@gmail.com

Ilmiy rahbar: Ma'mun universiteti

dotsenti, PhD Sh. Sherjonov

Annotatsiya. Maqolada dunyo tajribasi va O'zbekistonning kambag'allikni kamaytirish bo'yicha olib borayotgan islohotlari tahlil qilinadi. Kambag'allikni kamaytirish masalasida global miqyosdagi yondashuvlar, muvaffaqiyatli tajribalar, jumladan, Xitoy, Hindiston, Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlarining yutuqlari o'rganilgan. O'zbekistonning ijtimoiy siyosatidagi yangi tashabbuslar, jumladan, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, bandlikni ta'minlash, ta'lim va sog'liqni saqlash sohasidagi dasturlar va ijtimoiy yordam mexanizmlarining samaradorligi tahlil qilingan. Shuningdek, kambag'allikni kamaytirishga qaratilgan siyosatning istiqbollari va amalga oshirilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlar bo'yicha xususiy taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: kambag'allikni kamaytirish, ijtimoiy siyosat, o'zbekiston tajribasi, global amaliyot, ijtimoiy dasturlar, bandlikni ta'minlash, ta'lim va sog'liqni saqlash

*Магистрант Банковско-финансовой
академии Республики Узбекистан*

Намозов Садулла Намозович

Email: namozov0708@gmail.com

Научный руководитель: доцент

Университета Маъмуна, доктор

философии Ш. Шержонов

Аннотация. В статье анализируется мировой опыт и проводимые Узбекистаном реформы по сокращению бедности. Изучены глобальные подходы к проблеме сокращения бедности, успешный опыт, в том числе достижения Китая, Индии, стран Юго-Восточной Азии. Проанализирована эффективность новых инициатив в социальной политике Узбекистана, в том числе программ и механизмов социальной поддержки в области развития семейного предпринимательства, обеспечения занятости, образования и здравоохранения.

Он также предоставляет частные предложения и рекомендации по перспективам политики, направленной на сокращение бедности, и мерам, которые необходимо предпринять.

Ключевые слова: снижение бедности, социальная политика, опыт Узбекистана, глобальная практика, социальные программы, Обеспечение занятости, образование и здравоохранение.

WORLD PRACTICE AND POVERTY REDUCTION IN SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF UZBEKISTAN: ANALYSIS AND PROSPECTS

Master's student of the Banking and Finance Academy of the Republic of Uzbekistan

Namozov Sadulla Namozovich

Email-namozov0708@gmail.com

Scientific supervisor: Associate Professor of Mamun University, PhD Sh. Sherjonov

Annotation. The article analyzes world experience and Uzbekistan's reforms to reduce poverty. Global-scale approaches to poverty reduction have been explored, with successful experiments including the achievements of the states of China, India, Southeast Asia. New initiatives in Uzbekistan's social policy have been analyzed, including the development of family entrepreneurship, employment assurance, programs in education and health, and the effectiveness of social assistance mechanisms. There have also been private proposals and recommendations for policy prospects aimed at reducing poverty and measures to be implemented.

Keywords: poverty reduction, social policy, Uzbekistan experience, global practice, social programs, employment assurance, education and health.

KIRISH

Kambag‘allikni qisqartirish dunyo mamlakatlari oldida turgan eng muhim masalalardan biridir. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlarida kambag‘allikka qarshi kurash birinchi maqsad sifatida belgilangan. Bu esa kambag‘allikni qisqartirish masalasining global ahamiyatini yaqqol namoyon etadi. O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan buyon mamlakatda kambag‘allikni kamaytirishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Davlat siyosati doimiy ravishda aholining turmush darajasini yaxshilash, ijtimoiy tenglikni ta’minlash va iqtisodiy o‘sishdan barcha qatlamlarning bahramand bo‘lishiga qaratilgan. Ayniqsa, so‘nggi yillarda kambag‘allikka qarshi kurash masalasi hukumatning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida alohida e’tiborga olinmoqda. Bu borada ijtimoiy himoya

tizimini takomillashtirish, aholining ehtiyojmand qatlamlarini qo'llab-quvvatlash, bandlik darajasini oshirish, kasbiy qayta tayyorlash dasturlarini kengaytirish hamda tadbirkorlik va o'zini o'zi band qilish imkoniyatlarini rivojlantirish bo'yicha muhim qadamlar qo'yildi. Ijtimoiy himoya tizimida nafaqalar, moddiy yordam va subsidiya mexanizmlarining yanada samarali ishlashini ta'minlash maqsadida yangi dasturlar joriy etildi. "Temir daftar", "Ayollar daftari" va "Yoshlar daftari" kabi tizimlarning shakllantirilishi aholining zaif qatlamlarini aniq ro'yxat asosida qo'llab-quvvatlash imkonini berdi. Shu bilan birga, bandlik siyosatida yangi ish o'rirlari yaratish, aholining bozor talablariga mos kasb-hunar egallashini rag'batlantirish hamda mehnat migratsiyasi jarayonlarini tartibga solish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Tadbirkorlikni rivojlantirish yo'nalishida esa kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, kredit va imtiyozli moliyaviy resurslarga kengroq yo'l ochish, soliqqa oid yengilliklar berish orqali aholining o'z tashabbuslari asosida iqtisodiy faoliyat yuritishi uchun sharoit yaratildi. Bu nafaqat daromad manbalarining ko'payishiga, balki kambag'allikning bosqichma-bosqich qisqarishiga ham xizmat qilmoqda. O'zbekistonda kambag'allikka qarshi kurash sohasida hali ham muayyan muammolar mavjud. Jumladan, ayrim hududlarda infratuzilmaning sust rivojlanishi, aholining sifatli ta'lim va tibbiyot xizmatlariga yetarli darajada ega emasligi, norasmiy bandlikning yuqori darajadaligi kabi omillar kambag'allikni bartaraf etishda to'siq bo'lib qolmoqda. Bundan tashqari, aholi daromadlari o'rtasidagi tafovut, ijtimoiy adolatning to'liq ta'minlanmaganligi va mehnat samaradorligining pastligi ham yechimini kutayotgan muammolar sirasiga kiradi. O'zbekiston mustaqillik yillarda kambag'allikka qarshi kurashda muhim natijalarga erishgan bo'lsa-da, bu boradagi islohotlarni izchil davom ettirish, xalqaro tajribalarni chuqur o'rganish va zamonaviy yondashuvlarni qo'llash orqali yanada samarali natijalarga erishish mumkin.

ADABIYOTLAR SHARXI

Barqaror rivojlanish va kambag'allikni qisqartirish masalasi nafaqat milliy miqyosda, balki global darajada ham dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi. Shu sababli ushbu yo'nalishda xalqaro va milliy miqyosda ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. Birlashgan millatlar tashkilotining 2022-yildagi "Human Development Report"ida kambag'allikni kamaytirishda innovatsion yondashuvlarning roli, inson kapitalini rivojlantirish hamda ijtimoiy tenglikni ta'minlashning samaralik masalalari ko'rilgan. Jahon banki va xalqaro valyuta fondi tomonidan muntazam ravishda e'lon qilinadigan hisobotlarda iqtisodiy o'sish va kambag'allik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik chuqur o'rganilgan. Ularning tahlillarida iqtisodiy o'sish sur'atlari yuqori bo'lgan davlatlarda kambag'allikning kamayish darjasini tahlil qilingan, ammo bu jarayon har doim ham teng taqsimlanmaganligi qayd etiladi. Ya'ni, iqtisodiy o'sishning ijobiy natijalari barcha ijtimoiy qatlamlarga bir xil darajada ta'sir qilmasligi mumkin. Shu boisdan ham

xalqaro tashkilotlar o'sish bilan birga samarali ijtimoiy siyosatni yuritish zarurligini ta'kidlaydi.

Milliy miqyosda ham kambag'allikni qisqartirish borasida qator tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston milliy statistika qo'mitasi muntazam ravishda kambag'allik darajasi, aholi daromadlari va ularning turmush darajasiga oid ma'lumotlarni e'lon qilib boradi. Mazkur statistik ma'lumotlar asosida respublikada kambag'allikka ta'sir etuvchi asosiy omillar – bandlik darajasi, ta'lim sifati, sog'liqni saqlash tizimining samaradorligi, infratuzilmaning rivojlanganlik darajasi hamda hududlar o'rtaсидаги ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlar o'рганилди. O'zbek olimlari ham ushbu masalani ilmiy nuqtai nazardan chuqr tadqiq etib kelmoqda. Jumladan, iqtisodchi olimlar A. Vahobov, B. Xodiev, Sh. Abdullaeva, M. Xolmo'minov va boshqa mahalliy tadqiqotchilar o'z ilmiy maqola va monografiyalarida kambag'allikni qisqartirish, ijtimoiy adolatni ta'minlash, iqtisodiy resurslarni samarali taqsimlash hamda barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda davlatning o'rni haqida fikr yuritganlar. Ularning tadqiqotlarida kambag'allikni kamaytirishda soliq siyosatini takomillashtirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, ijtimoiy himoya tizimini yanada samarali qilish bo'yicha taklif va tavsiyalar ilgari surilgan. Ayrim mahalliy ilmiy tadqiqotlarda xalqaro tajribalarni O'zbekiston sharoitiga moslashtirish masalasi ham o'рганилмоқда. Masalan, Xitoy va Janubiy Koreya tajribasidan olingan kambag'allikni qisqartirish siyosatini O'zbekistonda qo'llash imkoniyatlari haqida ilmiy izlanishlar olib borilgan. Bu esa mamlakatda barqaror rivojlanish strategiyasini shakllantirishda ilmiy asoslangan yondashuvlarni keng joriy etish zarurligini ko'rsatmoqda.

METODOLOGIYA

Tadqiqotda qiyosiy va statistik tahlil usullaridan foydalanildi. Ma'lumotlar xalqaro va mahalliy ochiq manbalardan, jumladan, Jahon Banki, Xalqaro Valyuta Fondi, va O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo'mitasining rasmiy saytlaridan olindi. Qiyosiy tahlilda rivojlangan va rivojlanayotgan davatlarning kambag'allik darajasi, iqtisodiy o'sish sur'atlari va ijtimoiy himoya tizimlari ko'rsatkichlari ko'rib chiqildi.

TAHLIL VA TAHЛИL NATIJALARI

1-jadval

Rivojlangan davlatlar bilan O'zbekistonning asosiy ko'rsatkichlari taqqoslamasi:¹²³

¹ <https://data.worldbank.org/>

² <https://www.imf.org/>

³ <https://stat.uz/>

Mamlakat	Kambag‘allik darajasi (%)	YaIM o‘sishi (%)	Ijtimoiy himoya xarajatlari (% YaIMdan)
AQSh	10.5	2.1	18.7
Germaniya	8.5	1.8	25.1
Yaponiya	12.7	1.4	23.3
Janubiy Koreya	10.1	2.5	16.8
Fransiya	8.3	1.9	28.4
Kanada	9.4	2.0	22.6
Avstraliya	9.1	2.3	20.5
O‘zbekiston	14.5	5.6	12.3

1-jadval asosida rivojlangan davlatlar bilan O‘zbekistonning kambag‘allik darajasi, iqtisodiy o‘sish sur’atlari va ijtimoiy himoya xarajatlari o‘rtasida muhim farqlar mavjudligini ko‘rish mumkin.

Kambag‘allik darajasi nuqtayi nazaridan qaralganda, O‘zbekistonda ushbu ko‘rsatkich 14,5 foizni tashkil etib, jadvalda keltirilgan rivojlangan mamlakatlarga nisbatan ancha yuqori. Masalan, Germaniya (8,5%), Fransiya (8,3%) va Kanada (9,4%)da kambag‘allik darajasi ikki baravarga yaqin past. Bu esa O‘zbekistonda ijtimoiy himoya tizimini yanada kuchaytirish va aholi turmush darajasini yaxshilashga qaratilgan qo‘sishimcha chora-tadbirlar talab etilishini ko‘rsatadi. Biroq iqtisodiy o‘sish sur’atlari bo‘yicha O‘zbekiston rivojlangan davlatlarga nisbatan yuqori natijaga ega. Xususan, O‘zbekistonda YaIM o‘sishi 5,6%ni tashkil etmoqda, bu esa Fransiya (1,9%), Germaniya (1,8%), Yaponiya (1,4%) va AQSh (2,1%) ko‘rsatkichlaridan bir necha baravar yuqori. Bu natija mamlakatda iqtisodiy modernizatsiya jarayonlari, yangi ishlab chiqarish quvvatlarining ishga tushirilishi hamda investitsiyalar hajmining ortib borayotganini anglatadi. Shu bilan birga, yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlari hali kambag‘allikni sezilarli darajada qisqartira olmayotgani kuzatilmoqda. Demak, iqtisodiy o‘sishning natijalari aholining barcha qatlamlari uchun teng taqsimlanmayapti.

Ijtimoiy himoya xarajatlari bo‘yicha ham sezilarli tafovut mavjud. O‘zbekistonda YaIMning atigi 12,3% ijtimoiy himoyaga yo‘naltirilmoqda. Bu ko‘rsatkich rivojlangan mamlakatlarda ancha yuqori: masalan, Fransiyada 28,4%, Germaniyada 25,1%, Yaponiyada 23,3%, Kanadada esa 22,6%ni tashkil etadi. Demak, O‘zbekistonda iqtisodiy o‘sish sur’atlari yuqori bo‘lsa-da, ijtimoiy xarajatlarning nisbatan pastligi kambag‘allik darajasining yuqoriligiga sabab bo‘layotgan omillardan biri sifatida qaralishi mumkin.

Umuman olganda, jadvaldagi taqqoslash shuni ko‘rsatadi:

kambag‘allik darjasи O‘zbekistonda rivojlangan mamlakatlarga qaraganda yuqori.

iqtisodiy o‘sish bo‘yicha O‘zbekiston sezilarli ustunlikka ega.

ijtimoiy himoya xarajatlari esa nisbatan past bo‘lib, bu kambag‘allikni kamaytirish jarayoniga yetarli darajada ta’sir ko‘rsata olmayapti.

O‘zbekistonda yuqori iqtisodiy o‘sish natijalarini ijtimoiy sohaga kengroq yo‘naltirish, ijtimoiy himoya tizimini kuchaytirish va aholining zaif qatlamlarini yanada samarali qo’llab-quvvatlash zarur. Shu tarzda mamlakatda barqaror rivojlanishga erishish va kambag‘allik darjasini rivojlangan davlatlar ko‘rsatkichlariga yaqinlashtirish imkoniyati yaratiladi.

2-jadval

Rivojlanayotgan davlatlar va O‘zbekiston taqqoslash natijalari.⁴⁵⁶

Mamlakat	Kambag‘allik darjasи (%)	YaIM o‘sishi (%)	Ijtimoiy himoya xarajatlari (% YaIMdan)
Hindiston	22.0	6.1	8.7
Indoneziya	18.1	5.2	9.3
Braziliya	24.7	1.2	15.4
Turkiya	11.5	4.3	10.6
Meksika	19.6	2.0	12.9
Janubiy Afrika	30.1	1.0	17.2
Vyetnam	13.5	6.3	7.8
O‘zbekiston	14.5	5.6	12.3

2-jadval asosida rivojlanayotgan davlatlar bilan O‘zbekistonning kambag‘allik darjasи, iqtisodiy o‘sish sur’atlari va ijtimoiy himoya xarajatlari bo‘yicha taqqoslashlar bir qancha xulosalarni beradi.

Birinchidan, kambag‘allik darjasи nuqtayi nazaridan. O‘zbekistonda kambag‘allik darjasи 14,5% bo‘lib, bu ko‘rsatkich ayrim rivojlanayotgan mamlakatlarga nisbatan past, ayimlariga qaraganda esa yuqori. Masalan, Braziliya (24,7%), Meksika (19,6%), Indoneziya (18,1%) va Hindiston (22,0%)da kambag‘allik ko‘rsatkichi yuqoriroq. Shu bilan birga, O‘zbekiston Vyetnam (13,5%) va Turkiya (11,5%)ga nisbatan biroz yuqoriroq darajada turibdi. Demak, O‘zbekiston kambag‘allikka qarshi kurash borasida ayrim davlatlardan ijobiyoq natijaga erishgan bo‘lsa-da, Turkiya va Vyetnam tajribasidan o‘rganishi mumkin.

⁴ <https://data.worldbank.org/>

⁵ <https://www.imf.org/>

⁶ <https://stat.uz/>

Ikkinchidan, iqtisodiy o'sish sur'atlari bo'yicha. O'zbekistonda YaIM o'sishi 5,6% bo'lib, bu ko'rsatkich Hindiston (6,1%) va Vyvetnam (6,3%)dan biroz past, biroq ko'plab rivojlanayotgan davlatlardan sezilarli darajada yuqori. Xususan, Braziliya (1,2%), Meksika (2,0%) va Janubiy Afrikada (1,0%) iqtisodiy o'sish juda past ko'rsatkichlarga ega. Bu jihatdan O'zbekistonning yuqori iqtisodiy o'sish sur'ati mamlakatning investitsiyalarni jalg etish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish hamda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda faol ekanini ko'rsatadi.

Uchinchidan, ijtimoiy himoya xarajatlari. O'zbekistonda YaIMning 12,3% ijtimoiy himoyaga yo'naltirilmoqda. Bu ko'rsatkich Hindiston (8,7%), Indoneziya (9,3%), Vyvetnam (7,8%) va Turkiya (10,6%)ga qaraganda yuqoriroqdir. Shu bilan birga, Braziliya (15,4%) va Janubiy Afrika (17,2%)dan past. Demak, O'zbekiston ijtimoiy himoya sohasida ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlarga nisbatan ijobiy ko'rsatkichlarga ega, biroq ijtimoiy xarajatlar ulushini oshirish orqali kambag'allikni yanada samarali qisqartirish imkoniyatiga ega.

O'zbekistonning kambag'allik darajasi rivojlanayotgan davlatlar orasida o'rtacha ko'rsatkichda turadi — u eng yuqori ko'rsatkichlarga ega mamlakatlardan ancha past, biroq Turkiya va Vyvetnamdan yuqoriroq. Iqtisodiy o'sish sur'ati O'zbekistonda nisbatan yuqori bo'lib, bu mamlakatning rivojlanayotgan davlatlar orasida barqaror o'sishga ega ekanini tasdiqlaydi. Ijtimoiy himoya xarajatlari ko'plab rivojlanayotgan davlatlarga qaraganda yuqoriroq bo'lsa-da, yanada oshirilishi kambag'allikka qarshi kurashni tezlashtirishi mumkin.

O'zbekiston iqtisodiy o'sish sur'atlari va ijtimoiy himoya xarajatlari bo'yicha ijobiy natijalarga ega bo'lib, ayrim rivojlanayotgan davlatlarga nisbatan ustunlik ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, kambag'allik darajasini yanada kamaytirish uchun Turkiya va Vyvetnam tajribasini o'rganish, ijtimoiy xarajatlarni yanada manzilli va samarali yo'naltirish muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi tahlillar shuni anglatadiki, O'zbekiston barqaror rivojlanish yo'lida muayyan natijalarga erishgan bo'lsa-da, ushbu jarayonda hal etilishi lozim bo'lgan qator muammolar saqlanib qolmoqda. Avvalo, ijtimoiy himoya tizimini yanada kuchaytirish va samaradorligini oshirish dolzarb masalalardan biridir. Chunki rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, aholining ehtiyojmand qatlamlariga yo'naltirilgan ijtimoiy xarajatlar nafaqat kambag'allikni qisqartirishga, balki iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga ham xizmat qiladi. Shu jihatdan, O'zbekistonda nafaqa, moddiy yordam va subsidiya mexanizmlarini takomillashtirish, ijtimoiy xizmatlar sifatini oshirish, aholining himoyaga muhtoj guruhlarini aniq manzilli qo'llab-quvvatlash masalalari ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchidan, iqtisodiy o'sishni ta'minlash bilan bir qatorda, uning inkluzivligini kuchaytirish talab etiladi. Oddiy qilib aytganda, iqtisodiy o'sish faqat umumiy

ko'rsatkichlarda emas, balki aholining barcha qatlamlari, xususan, kam ta'minlangan, ishsiz, yoshlar va ayollar uchun ham real imkoniyatlar yaratishi zarur. Shu ma'noda, resurslarning teng taqsimlanishi, hududlar o'rtaSIDagi ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish, sifatli ta'lim va sog'liqni saqlash xizmatlaridan hammaning foydalanishi uchun sharoit yaratish muhim ahamiyatga ega. Aholi hayot sifatini yaxshilashda inklyuziv iqtisodiyot tamoyillari nafaqat kambag'allikni qisqartirishga, balki ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga ham xizmat qiladi.

Uchinchidan, xalqaro tajribadan kelib chiqib, mehnat bozorini rivojlantirish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash tizimini kengaytirish O'zbekiston sharoitida dolzarb yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Chunki yangi ish o'rnlari yaratish va aholining mehnatga layoqatli qismini samarali band etish nafaqat daromadlarni oshiradi, balki kambag'allikning ildizini yo'qotishda ham muhim rol o'ynaydi. Bu borada kasbiy qayta tayyorlash dasturlarini kengaytirish, mehnat migratsiyasi jarayonlarini tartibga solish, yoshlarning mehnat bozoriga kirishini qo'llab-quvvatlash, kichik biznes va oilaviy tadbirkorlik uchun qulay sharoitlar yaratish alohida ahamiyatga ega. Xususan, imtiyozli kreditlar, soliq yengilliklari, davlat kafolatlari kabi mexanizmlar aholining iqtisodiy faolligini oshirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

Umuman olganda, O'zbekiston barqaror rivojlanishga erishishda muhim qadamlarga qo'l urayotgan bo'lsa-da, ijtimoiy himoya tizimini mustahkamlash, inklyuziv iqtisodiyotni rivojlantirish va mehnat bozori hamda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish orqali bu jarayonni tezlashtirish mumkin. Mazkur yo'nalishlardagi kompleks yondashuv nafaqat kambag'allikni qisqartirishga, balki mamlakatning uzoq muddatli barqaror taraqqiyotini ta'minlashga ham xizmat qiladi.

Rivojlanayotgan davlatlar bilan qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston uchun kambag'allikni qisqartirishda innovatsion yondashuvlarni qo'llash va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish zarur. Bu yo'nalishda hukumat va fuqarolik jamiyatni sa'y-harakatlarini uyg'unlashtirish muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- [1]. World Bank Group. (2022). *Poverty and Shared Prosperity 2022: Correcting Course*. Washington, DC: The World Bank.
- [2]. United Nations Development Programme (UNDP). (2023). *Human Development Report 2023: Uncertain Times, Unsettled Lives*. New York: UNDP.
- [3]. Ravallion, M. (2016). *The Economics of Poverty: History, Measurement, and Policy*. Oxford University Press.
- [4]. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning ijtimoiy sohani rivojlantirishga oid farmon va qarorlari (2017–2023 yillar).
- [5]. Xitoy Xalq Respublikasi kambag'allikni kamaytirish strategiyasi: muvaffaqiyat va saboqlar. (2022). Pekin: China Development Press.

- [6]. O‘zbekiston Respublikasi Statistika qo‘mitasi. (2023). *2023-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichlari*. Toshkent.
- [7]. Asian Development Bank (ADB). (2021). *Tackling Poverty in Asia: Policy Lessons and Strategies*. Manila: ADB.
- [8]. Sen, A. (1999). *Development as Freedom*. New York: Oxford University Press.
- [9]. International Labour Organization (ILO). (2023). *Global Employment Trends for Youth 2023*. Geneva: ILO.
- [10]. O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi. (2022). *Milliy bandlik dasturlari va ularning natijadorligi*. Toshkent.